

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

# FRANCE

SCIENTIFIC APPROACH  
TO THE MODERN  
EDUCATION SYSTEM



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

zenodo OpenAIRE



digital  
object  
identifier

OPEN ACCESS



[info.interonconf@mail.ru](mailto:info.interonconf@mail.ru)

[www.interonconf.com](http://www.interonconf.com)



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES



**FRANCE international scientific-online conference:  
"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN  
EDUCATION SYSTEM"**

Part 26  
5<sup>th</sup> JUNE

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

PARIS 2024



<i>ОРГАНИЗАЦИИ.</i>	
<b>Nilufar Aripova</b>	<b>113</b>
<b>Ixtiyor Qo`chqorov</b>	
<i>DIGITAL SECURITY IN UZBEKISTAN: COMBATING CYBERCRIME</i>	
<b>Karimov Shamsiddin Akram ogli</b>	<b>117</b>
<i>DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY THROUGH IMPLEMENTATION OF ECOLOGICAL AND SOCIAL RISK ASSESSMENT AND MANAGEMENT SYSTEM IN BANKS</i>	
<b>To`xtayev Shonazar Hojiyevich</b>	<b>120</b>
<b>Xayrullayev Muhridin Faxriddin o`g`li</b>	
<b>Davronov Elbek Abdusalolovich</b>	
<i>BUXORO VILOYATI SHAROITIDA POMIDORNING SO`RUVCHI ZARARKUNANDASI – O`RGIMCHAKKANAGA QARSHI ABAMEKTIN PREPARATINING SAMARADORLIGI.</i>	
<b>Усмонова Н.М</b>	<b>124</b>
<b>Хасанов Адхамжон Иброхимжон угли</b>	
<i>ФОРМИРОВАНИЕ КАДРОВОГО РЕЗЕРВА В ОРГАНИЗАЦИЯХ.</i>	
<b>Rajapboyev Anvarbek Xosilbek o`g`li</b>	<b>127</b>
<b>Jamshidbek Yuldashev Baxtiyarovich</b>	
<b>Mamirov Ma`rufjon Yoriqul o`g`li</b>	
<i>ZAMONAVIY DUNYODA MA`LUMOTLAR FANINING AHAMIYATI</i>	
<b>Rasulova Shahnoza Abduvasi qizi</b>	<b>133</b>
<i>THE MEANING OF COLOR MARKING IN ENGLISH PHRASEOLOGY</i>	
<b>Чарос Абдуллаева</b>	<b>137</b>
<i>КАМПАРАВИСТИК МАСАЛАЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР</i>	
<b>Habibullayeva Muslimaxon Rasuljon qizi</b>	<b>140</b>
<i>THEATRES, CINEMAS AND CONCERT HALLS</i>	
<b>Fayzullayeva Umriya Rustamovna</b>	<b>143</b>
<i>SUN`IY INTELLEKTNING HAYOTIMIZDAGI O`RNI</i>	
<b>Do`stova Shahlo Baxtiyorovna</b>	<b>146</b>
<b>Hayitova Marjona</b>	
<i>“STEREOMETRIYA MASALALARINI YECHISH MAVZUSINI AKT(AXBOROT KOMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI)DAN FOYDALANIB O`TISH”</i>	
<b>Daminova Mengsuluv Uralmaxmatovna</b>	<b>150</b>
<i>JAHON PSIXOLOGIYASIDA SHAXS NAZARIYALARI</i>	
<b>Narzullayev Sherxon Murotali o`g`li</b>	<b>154</b>
<i>XVI – XVIII ASRLARDA GERMANIYANING RIVOJLANISHI</i>	
<b>Ойбекова Сарвиноз Киёмовна</b>	<b>159</b>

BUXORO VILOYATI SHAROITIDA POMIDORNING SO'RUVCHI  
ZARARKUNANDASI – O'RGIMCHAKKANAGA QARSHI ABAMEKTIN  
PREPARATINING SAMARADORLIGI.

To'xtayev Shonazar Hojiyevich

*q/x.f.n., dotsent*

Xayrullayev Muhriddin Faxriddin o'g'li

*o'qituvchi*

Davronov Elbek Abdusalolovich

*talaba*

*Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarda va tabiiy iqlim sharoitida samarali mehnat qilib yuqori hosildorlikka erishish uchun hosildorlikni pasayishiga olib keluvchi zararli organizmlarni kamaytirishda kam zaharli yangi kimyoviy preparatlarni o'rganish hozirda qishloq xo'jalikning mahsulotlarini yetishtirishda asosiy vazifalardan biri bo'lib, yangi preparatlarni har bir mintaqa sharoitiga mos kelishini sinash va qo'llash hisoblanadi.

Respublikamiz issiqxona xo'jaliklarida pomidorning xavfli so'ruvchi zararkunandasi bo'lgan oddiy o'rgimchakkanaga (*Tetranychus urticae Koch.*) qarshi zamonaviy, atrof-muhitga kam zaharli, foydali hasharotlar hamda issiqqonli hayvonlarga salbiy ta'siri kam bo'lgan va hosildorlikni oshirishda Abamektin plyus 1,8 % em.k. preparatining samaradorligi ijobiy ekanligi tajribalarimizda o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** Pomidor, o'rgimchakkana, preparat, tajriba, tuproq, hosildorlik, samaradorlik, Avtomaks, kasallik, zararkunanda, qishloq xo'jalik, Abamektin plyus 1,8 % em.k.

**Аннотация:** После обретения нашей республикой независимости в целях достижения высокой продуктивности за счет эффективной работы в фермерских хозяйствах и в природно-климатических условиях изучение новых химических препаратов с низкой токсичностью по снижению вредных организмов, вызывающих снижение продуктивности, в настоящее время является одной из актуальных задач. Основными задачами при производстве сельскохозяйственной продукции является апробация и применение новых препаратов, адаптированных к условиям каждого региона.

Абамектин – современное, малотоксичное для окружающей среды, полезное и полезное средство против паутиного клеща обыкновенного (*Tetranychus urticae Koch.*) который является опасным сосущим вредителем томатов в теплицах нашей страны, и оказывает низкое негативное действие на тепличных животных и повышает продуктивность плюс 1,8% ем.к. Положительная эффективность препарата отражена в наших экспериментах.

**Ключевые слова:** Томат, паутиный клещ, препарат, эксперимент, почва, урожайность, эффективность, Автомакс, болезнь, вредитель, сельское хозяйство, Абамектин плюс 1,8% ем.к.

**Abstract:** After our republic gained independence, in order to achieve high productivity through effective work on farms and in natural climatic conditions, the study of new chemicals with low toxicity to reduce harmful organisms that cause a decrease in productivity is currently one of the urgent tasks. The main tasks in the production of agricultural products are the testing and use of new drugs adapted to the conditions of each region.

Abamectin is a modern, low-toxicity for the environment, useful and useful remedy against the common spider mite (*Tetranychus urticae* Koch.), which is a dangerous sucking pest of tomatoes in greenhouses in our country, and has a low negative effect. on greenhouse animals and increases productivity plus 1.8% e.c. The positive effectiveness of the drug is reflected in our experiments.

**Key words:** Tomato, spider mite, drug, experiment, soil, productivity, efficiency, Automax, disease, pest, agriculture, Abamectin plus 1.8% volume.

**Kirish.** Pomidor o'simliklari hosildorligini oshirish, kasalliklar va zararkunandalardan saqlash uchun chidamli navlarni tanlab olib ekishda qishloq xo'jaligi bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish kabilar katta ahamiyat kasb etadi [1,2,5].

Pomidor o'simligiga zarar yetkazadigan zararkunandalardan xavfli so'ruvchi zararkunanda o'rgimchakkana hisoblanib uning biologiyasi keng va atroflicha o'rganilgan. Buxoro vohasida ham o'rgimchakkana pomidorga zarar yetkazib, umumiy hosilini 25-30% ga kamaydi. Bizning olib boradigan tajribamizning asosiy maqsadi o'rgimchakkananing pomidorga zarar yetkazish muddatlarini aniqlab unga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqarish darajasini keng qo'llashdir.

O'rgimchakkanaga 248 tadan ortiq o'simlik turini zararlaydi, shundan 173 ta begona o'tlar va manzarali o'simliklarga, 38 ta daraxt va butalarga to'g'ri keladi.

Pomidor o'simligi ekiladigan tuman va hududlarda o'rgimchakkana "*Tetranychus urticae* Koch" turi keng tarqalgan bo'lib, bu zararkunanda pomidor hosilining 30-40% ini nobud qiladi. O'rgimchakkana aprel oyida pomidorga tushganda himoya chorasi olib borilmasa 50-60% va may oyida tushsa 2-6%gacha hosildorlikni kamaytiradi [3,4].

O'rtacha pomidorning har 100 ta bargida 150 ta o'rgimchakkana uchrasa shu muddatda unga qarshi akaritsidlar bilan himoya qilish tavsiya etiladi. O'rgimchakkaning faol harakatlanishi uchun 25-30°C issiqlik va havoning nisbiy namligi esa 45-65% bo'lishi kerak. O'rgimchakkaning urg'ochisi 30 kungacha hayot kechirib 200 va undan ko'p tuxum qo'yadi. O'rgimchakkana erta bahorda begona o'tlarda uchraydi. Ular yo'l atrofidagi begona o'tlarda boshqa mavzelerde joylashgan begona o'tga nisbatan 20-30 marta ko'p uchraydi [6,7,8,9].

2021-2023-yillar davomida Buxoro viloyati Buxoro tumani Rabotiqalmoq MFY Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dala tajriba maydonida qadimdan sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqlarda o'tkazilgan tajribalarimiz natijasida

shu aniq bo'ldiki, o'rgimchakkana pomidor o'simligida aprelning oxiri may oyining boshida uchrab har bir 100 pomidor bargiga 14-15 donadan to'g'ri keladi.

Pomidor o'simligida uchraydigan o'rgimchakkanaga qarshi kurashishda Abamektin plyus 1,8 % em.k. preparatining samaradorligini o'rganish uchun quyidagi variantlarda tajriba qo'yildi.

1. Nazorat (preparatsiz).
2. Omayt 57 % k.em.1,5 l/ga suspenziya konsentrati (taqqoslovchi),
3. Abamektin plyus 1,8 % em.k. (0,3 l/ga) emulsiya konsentrati.
4. Abamektin plyus 1,8 % em.k. (0,4 l/ga) emulsiya konsentrati.

Tajribada pomidorning Bahodir navida foydalanildi. Dala tajribalari 100 m<sup>2</sup> maydonda uchta takroriy joylashgan bo'lib pomidor ko'chatining bir gektarida 800 dona qalinlikda joylashgan.

2021-2023-yillar 13-14-mayda ertalab "Avtomaks" ransevoy apparati yordamida 350 l/ga me'yorida ishchi suyuqlik pomidor o'simligiga purkaladi. O'rgimchakkanaga qarshi qo'llanilgan preparatning samaradorligini o'rganish uchun hisob-kitob ishlari olib borildi.

1-jadval.

2021-2023-yillar davomida Buxoro viloyati Buxoro tumani Rabotiqalmoq MFY Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dala tajriba maydonida

Tajriba variantlari,	Sarflangan preparat me'yori l/ga	O'rtacha bir dona bargdagi o'rgimchakkananing soni				Kunlar orasidagi samaradorligi %		
		Ishlovgacha	Ishlovdan keyingi kunlarga			3	7	14
			13,07	3	7			
1. Nazorat (preparatsiz)	0	61,8	65,0	100,5	1,7	-	-	-
2. Omayt 57 % k.em. 0,4 l/ga	0,4	42,0	1,5	0,8	21,0	96,5	98,1	50,0
3. Abamektin plyus 1,8 % em.k.	0,3	38,0	15,0	2,5	0,8	60,6	94,5	97,9
4. Abamektin plyus 1,8 % em.k.	0,4	75,0	3,0	1,8	0,5	96,0	97,6	99,6

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shu ma'lum bo'ldiki, o'rgimchakkanaga qarshi kurash choralari qo'llanganda 7 kundan keyin kimyoviy preparatlar o'rgimchakkanalar sonining kamaytirishida o'z ta'sirini ko'rsatib, Buxoro tumani Rabotiqalmoq MFY Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dala tajriba maydonida 14 kundan keyin bo'lsa ularning miqdori 99,6% gacha kamaydi. Insekto-super 28 % sus,k. 0,4 l/ga preparati qo'llangan variant ham, o'rgimchakkanani kamaytirishiga olib keldi, lekin bu preparatni tarkibida oltungugurt bo'lganligi sababli iqlim tuproq sharoitida namlikning kamligi va havo haroratni yuqori bo'lganligi sababli ta'sir kuchi uzoq muddatga bormadi va hosilni saqlashda o'z ta'sirini yo'qotdi.

O'tkazilgan tajribalardan va olingan natijalar shuni ko'rsatdiki qo'llanilgan yangi Abamektin plyus 1,8 % em.k. preparati pomidor o'simligiga uzoq muddatga ta'sir etib, uni o'rgimchakkanadan himoya qilib, nihoyat hosilning oshirishiga sabab bo'ldi.

#### Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyatida Buxoro tumani Rabotiqalmoq MFY Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya dala tajriba maydonida pomidor o'rgimchakkanasiga qarshi kurashda Abamektin plyus 1,8 % em.k. 0,3-0,4 l/ga hajmda foydalanish uzoq muddat sug'oriladigan allyuvial o'tloq tuproqlarda samarali bo'ladi. Pomidor o'simligi o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib 35-40 t/ga qo'shimcha hosil bilan esa 4,8-5,7 t/ga hosil olish mumkin edi.

O'tkazilgan tajribalar va olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, pomidor o'simligiga qo'llanilgan yangi Abamektin plyus 1,8 % em.k. preparati issiqqonli hayvonlar va foydali hasharotlarga boshqa dori vositalariga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatadi va pirovardida hosildorlikning ijobiy o'zgarishiga sabab bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. С.Н.Алимухаммедов, Интегрирования защита растений и качество продукция. Москва. "Хлопководство", 1983, №5.стр. 6-8
2. С.Н.Алимухаммедов, Исследования по защите хлопкового поля. Москва, Журнал "Защита растений", 1983," №2.стр.18-20.
3. Я.Яхонтов, Ўрта Осиё қишлоқ хўжалик зараркундалари ва уларга қарши кураш чоралари, Тошкент, "Ўзбекистон", 1962, 197-211 бет.
4. Ф.М Успенский, Обыкновенный паутинный клещ в орошаемых районах Средней Азии. Издательство Академия с/х наук Узбекистана, Ташкент, 1996. стр.62.
5. Ф.М Успенский –Какой должна быть система интегрированной защиты растений. Москва журнал "Хлопководство" 1975, № 2 стр. 25-30.
6. зарарли организмлари ва уларга қарши биологик кураш усуллари" услубий қўлланма, БухДУ "Шарқ Бухоро" нашриёти, 2020й. 17 бет.
7. Б Ш.Тўхтаев, Ф.Ганиева "Қишлоқ хўжалигининг асосий экинлари. Мухаммадиев, Ш.Тўхтаев "Олтингургурт ва унинг пестицидлик хусусиятлари" Агро илм 4-сон 2021 йил 53-54 бетлар.
8. Ш.Х.Тўхтаев ва бошқалар, "Олтингургурт ва ўргимчаккана" Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 6-1.2022 йил. Хива 2022. 192-195 бетлар.